



YASHIL KELAJAK UCHUN KORRUPSIYAGA YO'L YO'Q!

Toshboyeva Durdona Fayzi qizi

toshboyevadurdona657@gmail.com

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent,
O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15684751>

ARTICLE INFO

Received: 11th June 2025

Accepted: 15th June 2025

Published: 17th June 2025

KEYWORDS

yashil kelajak, korrupsiya, ekologik muhofaza, halollik, shaffoflik, barqaror rivojlanish.

ABSTRACT

Maqolada yashil kelajakni ta'minlashda korrupsiyaning salbiy ta'siri yoritilib, atrof-muhitni muhofaza qilishda halollik va shaffoflikning ahamiyati tahlil qilingan. Korrupsiyaga qarshi kurash barqaror ekologik rivojlanishning muhim omili sifatida ko'rsatilgan.

Bugungi globallashuv jarayonida insoniyatni tashvishga solayotgan eng asosiy muammolardan biri — ekologik muammolar. Iqlim o'zgarishi, suv resurslarining kamayishi, havoning ifloslanishi kabi muammolar dunyo hamjamiyatidan birdamlik va qat'iy choralarni talab qilmoqda. Yashil kelajak — bu faqat orzu emas, balki barchamizning maqsadimizga aylanishi kerak. Ammo bu ezgu yo'lda korrupsiya kabi illatlar jiddiy to'siq bo'lib qolmoqda. Chunki korrupsiya faqat iqtisodiy o'sishga emas, balki ekologik barqarorlikka ham halokatli zarar yetkazadi. Yashil kelajak bu nafaqat so'z, balki butun insoniyat oldidagi eng katta maqsadlardandir. Korrupsiya, o'z mohiyatiga ko'ra, resurslarning adolatsiz taqsimlanishiga, loyihalarning samarasiz amalga oshirilishiga va ekologik xavfsizlikning buzilishiga olib keladi.

Shunday ekan, korrupsiyaga qarshi qat'iy kurash olib borilmay turib, barqaror yashil kelajakni tasavvur qilishning o'zi qiyin. Keling, dastlab korrupsiya atamasiga izoh berib o'tamiz. Korrupsiya — mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarni ko'zlab noqonuniy tarzda foydalanish, mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish, pora olish yoki berish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yish, davlat va jamiyat resurslaridan shaxsiy foyda ko'rish orqali huquqiy normalarni buzish holatlarining umumiy ifodasi. Korrupsiya atrof-muhitni asrash uchun mo'ljallangan mablag'larning maqsadsiz sarflanishiga olib keladi. Ekologik loyiha va dasturlar o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilmaydi. Atrof-muhitni muhofaza qilish uchun ajratilgan byudjet mablag'larining o'zlashtirilishi natijasida ko'plab ekologik loyihalar o'z samarasini bermaydi. Masalan, ekologik tozalash inshootlarining sifatsiz qurilishi, chiqindilarni qayta ishlash loyihalarining noto'g'ri amalga oshirilishi yoki qog'ozda mavjud, lekin amalda mavjud bo'lmagan "yashil" dasturlar bunga yorqin misoldir. Natijada, daraxtzorlar qiriladi, suv va havo ifloslanadi, chiqindilar to'planadi va inson salomatligiga tahdid kuchayadi. Misol uchun, ba'zi hududlarda noqonuniy qurilishlarga ruxsat berilishi, sanoat chiqindilarining nazoratsiz tashlanishi yoki yer resurslaridan noqonuniy foydalanish holatlari ko'pincha korrupsiya bilan bog'liq bo'lib chiqadi. Shuningdek, korrupsion holatlar noqonuniy o'rmon qirilishi, suv resurslarining va havoning ifloslanishiga sabab bo'luvchi zavod va fabrikalarga nisbatan jazo choralarning ko'rilmaligi kabi jiddiy oqibatlariga olib keladi. Eng achinarlisi shuki, korrupsiyadan kelib chiqqan ekologik muammolar qisqa

muddatda emas, balki uzoq yillarda o'z salbiy oqibatlarini ko'rsatadi. Bugun e'tiborsizlik qilingan har bir daraxt, har bir suv havzasi kelajak avlodning sog'lom hayotiga putur yetkazadi.

Yashil kelajak sari yo'l ochish uchun korrupsiyaga qarshi kurashish birinchi galdagi vazifalardan biridir. Buning uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Qonunchilik bazasini mustahkamlash. Ekologik muhofaza va korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi qonunlarni takomillashtirish zarur. Xususan, atrof-muhitni asrashga ajratilgan mablag'larning har bir tiyini ustidan ochiq va shaffof nazorat o'rnatilishi kerak. Davlat idoralari faoliyatida ochiqlik va hisobdorlik tamoyillari asosiy o'rin tutishi lozim.

2. Ommaviy axborot vositalari va fuqarolik nazoratining kuchaytirilishi. Axborot erkinligi korrupsiyaga qarshi kurashda muhim rol o'ynaydi. OAV orqali ekologik dasturlar bo'yicha muntazam hisobotlar berilishi, fuqarolar va jamoatchilik tashkilotlari ekologik nazorat jarayonlarida faol ishtirok etishi zarur.

3. Texnologik yechimlardan foydalanish. Zamonaviy raqamli texnologiyalar korrupsiyaga qarshi samarali kurashish imkonini beradi. Masalan, elektron davlat xaridlari, ochiq ma'lumot bazalari, sun'iy intellekt asosidagi monitoring tizim orqali ekologik loyihalarni nazorat qilish mumkin.

4. Ekologik ma'rifatni oshirish. Korrupsiyasiz jamiyat barpo etishda aholining ekologik ongini yuksaltirish muhim o'rin tutadi. Maktabdan boshlab barcha ta'lim bosqichlarida ekologik tarbiya va korrupsiyaga qarshi kurash madaniyatini shakllantirish kerak.

Bunday chora-tadbirlarning ayrimlarini yanada keng yoritamiz va natijalari bilan ham ta'minlaymiz. Bulardan biri sifatida atrof-muhitni muhofaza qilish jarayonida ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini misol qilib keltirsak bo'ladi. Har bir ekologik loyiha, unga ajratilgan mablag' va erishilgan natijalar haqida jamiyatga muntazam axborot berib borilishi kerak. Shu tarzda fuqarolar va nodavlat tashkilotlar nazorati ostida ish olib borilsa, korrupsiya xavfi keskin kamayadi. Bundan tashqari, ekologik loyihalarni amalga oshirishda mustaqil monitoring tizimlarini joriy etish zarur. Mustaqil baholovchi va auditor tashkilotlarning faoliyati ekologik sohada oshkoralikni ta'minlashga yordam beradi. Shu yo'l bilan korrupsiyaning oldi olinadi va haqiqiy yashil taraqqiyotga erishiladi. Korrupsiyaga qarshi kurash — yashil kelajakning asosi. Korrupsiyaga qarshi kurashish har bir davlat uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Ekologik sohada esa bu kurash ikki barobar ahamiyatlidir. Chunki tabiat va uning boyliklari jamiyatning umumiy mulki hisoblanadi. Ularni noqonuniy ravishda talon-taroj qilish nafaqat hozirgi avlodning, balki kelajak avlodlarning ham haqqiga tajovuz hisoblanadi.

Xalqaro tajribalardan ko'rib chiqib, o'zimizning hayotimizga ham tadbiriq etsak bo'ladi. Dunyo tajribasida bir qator davlatlar korrupsiyaga qarshi kurash orqali ekologik barqarorlikka erishgan. Masalan, Daniya va Finlandiya singari mamlakatlar korrupsiya darajasining pastligi va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha yuqori ko'rsatkichlari bilan tanilgan. Bu davlatlarda ekologik siyosat shaffoflik, ishonch va ijtimoiy nazoratga asoslangan. Shuningdek, ekologik loyihalarni moliyalashtirishda mustaqil auditchi tashkilotlar faol ishtirok etadi va har bir loyiha bo'yicha jamoatchilikka to'liq axborot taqdim etadi. O'zbekiston ham bu borada o'z tajribasini boyitib, xalqaro amaliyotlarni o'rganishi va amaliyotda tatbiq etishi zarur.

Yashil kelajak — bu faqat ekologik toza muhit emas, balki halol va adolatli jamiyat. Har bir fuqaro o'zining kundalik faoliyatida, atrof-muhitni muhofaza qilishda va korrupsiyaga

nisbatan murosasiz bo'lish orqali yashil kelajak qurilishiga hissa qo'sha oladi. Barchamizning oldimizda turgan vazifa shuki, kelajak avlodlar uchun bunday muhitni saqlab qolish va yanada rivojlantirishdir. Chunki korrupsiya ekologik loyihalarni samarasiz qiladi, tabiiy boyliklarni talon-taroj etadi va butun jamiyatning kelajagini xavf ostiga qo'yadi. Shu sabab, yashil taraqqiyotga erishish uchun korrupsiyaga nisbatan nol toqat tamoyilini joriy etish, ochiqlik va shaffoflikni asosiy qadriyatga aylantirish zarur. Zero, korrupsiyasiz jamiyat — bu toza havo, sof suv va yashnagan tabiat demak.

Har bir fuqaroning ekologik ongi va halol yondashuvi, davlat idoralarining esa mas'uliyati va ochiqligi orqali biz yashil va sog'lom kelajakni barpo etishimiz mumkin.
Yashil kelajak sari — korrupsiyasiz yo'lda!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Transparency International, "Global Corruption Report", 2023.
2. United Nations Environment Programme (UNEP), "Environmental Rule of Law: First Global Report", 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi materiallari, 2024.
4. YUZ.UZ — "Yashirin iqtisodiyotga ta'sir qiluvchi eng katta omil – korrupsiya" maqolasi, 2024.
5. ADU.UZ — "Korrupsiyasiz hayot - buyuk kelajak demakdir" maqolasi, 2023.

INNOVATIVE
ACADEMY